
VILOYAT HOKIMI XAYRULLO BOZOROV KOREYA-O'ZBEKISTON BIZNES ASSOTSIATSIYASI VITSE-PREZIDENTI EDVARD KIM BOSHCHILIGIDAGI KOREYALIK ISHBILARMONLARNI QABUL QILDI

Joriy yil may oyida viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Chungchongnam-do provintsiyasi gubernatori Kim Tae Xeumni qabul qilib, uchrashuvda ushbu provintsiyasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi va viloyatimiz mahsulotlari ko'rgazmasini o'z ichiga olgan "Farg'ona Savdo uyi" ochish taklifini ilgari surgandi. Bu taklif mammuniyat bilan qabul qilinib, amaliy ishlarga kirishilgandi. Bugungi uchrashuvda Koreyada "Farg'ona Savdo uyi" qurilish ishlari yakunlanib qolgani kelgusi oyda ochilishga tayyorgarlik ko'rileyotganligi ma'lum qilindi. Farg'ona viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ushbu markazga joylashtirish kerakligi qayd etildi. Mehmonlar tomonidan ushbu Savdo uyi ochilishiga Farg'ona viloyati hokimi boshchiligidagi delegatsiya taklif qilinib, ushbu tashrif Chungchongnam-do provintsiyasi salohiyatini yaqindan tanishtirishga imkon yaratishi ta'kidlandi.

"Uz-Segan" korxonasi bosh direktori Xurshid Normatov ham ishtirok etgan uchrashuvda Farg'ona viloyatida yetishtirilgan meva-sabzavotlarni Koreyaga eksporti amalga oshirishga kirishilgani va uning ko'lamini kengaytirish imkoniyatlari, ikki hudud tadbirkorlari tomonidan olib borilayotgan istiqbolli hamkorlik aloqalari bo'yicha ham fikrlar bildirildi.

Bundan tashqari, yangi yerlarni o'zlashtirish bo'yicha investitsion loyihalar ustida ishlanayotganligi, mahsulotlarni yetishtirish uchun fermer xo'jaliklarini agro kooperatsiyaga aylantirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

2024-10-08 08:56:25